



ON THE REPRESENTATION OF NORTHERN USTRUSHANA CITIES IN WRITTEN AND ARCHAEOLOGICAL SOURCES

Sirojiddin Sharofov

PhD Candidate

Jizzakh State Pedagogical University

Email: sirojiddinsharofov1998@gmail.com

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Ustrushona, Peshagor, Great Silk Road, Nurtepa, Khontep, Saganaktepa, Harkan, Zamin, Dizak, Kurkat, Gulakandoz, Bunjikat, Zomin, Feknon, rustok.

Received: 23.05.25

Accepted: 25.05.25

Published: 27.05.25

Abstract: This article discusses the history of the northern Ustrushona cities. It also describes the significant role of Ustrushona in the development of socio-economic and cultural relations in Central Asia in ancient times through historical sources and archaeological data.

YOZMA VA ARXEOLOGIK MANBALARDA SHIMOLIY USTRUSHONA SHAHARLARINING YORITILISHI XUSUSIDA

Sirojiddin Sharofov

Tayanch doktorant

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Email: sirojiddinsharofov1998@gmail.com

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ustrushona, Peshag'or, Buyuk Ipak yo'li, Nurtepa, Xontepa, Sag'anaktepa, Xarkan, Zomin, Dizak, Kurkat, Gulakandoz, Bunjikat, Zomin, Feknon, rustoq.

Annotatsiya: Mazkur maqolada shimoliy Ustrushona shaharlarining tarixi haqida so'z yuritiladi. Unda shuningdek, qadimda O'rta Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojida Ustrushona sezilarli rol o'yaganligi tarixiy manbalar va arxeologik ma'lumotlar orqali bayon qilingan.

О ОСВЕЩЕНИИ ГОРОДОВ СЕВЕРНОЙ УСТРУШАНЫ В ПИСЬМЕННЫХ И АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ

Сироджиддин Шарофов

Аспирант

Джизакского государственного педагогического университета

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Аннотация:
Уструшона, Пешагор, Великий шелковый путь, Нуртепа, Хантепа, Саганактепа, Харкан, Зомин, Дизак, Куркат, Гулакандоз, Бунджикат, Зомин, Фекнон, Рустак.	В данной статье рассказывается об истории северных городов Уструшона. В исторических источниках и археологических данных также утверждается, что Уструшана играла значительную роль в развитии социально-экономических и культурных связей Центральной Азии в древние времена.

Bizning borlig‘imiz, tilimiz va tafakkurimiz, madaniy-etnik qiyofamiz, udum va an’analarimiz, milliy tuyg‘ularimiz – bularning barchasi O‘zbekiston deya atalmish muqaddas Vatanimiz, uning qadimiylaridan biri bo‘lgan Jizzax nomi bilan mushtarak. Chunki, qadimiylaridan navqiron Jizzax vohasi ham O‘zbekistonning ota-bobolarimiz yashagan, kindik qoni to‘kilgan, kelajak avlodlarga baxt va saodat bera olgan muqaddas zamin hisoblanadi. Birinchi Prezident ta’biri bilan aytganda: “Jizzax – ikki ming yildan ko‘proq tarixga va go‘zal tabiatga ega bo‘lgan qadimiylar maskan... O‘zbek xalqining ko‘p-ko‘p asl farzandlari mana shu zaminda tarbiya topgan, o‘z fidoyiligi bilan el-yurtimizning obro‘siga obro‘, salohiyatiga salohiyat qo‘shegan, tarixda o‘zlarining pok nomlarini qoldirgan” [1:193].

Respublikamizning amaldagi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bu haqida to‘xtalib: “...Ushbu hududdagi Ustrushona, Peshag‘or kabi tarixiy joylar, Takalisoy qoyatoshlariga ishlangan rasmlar, Baxmal, G‘allaorol va Jizzax tumanlaridagi ko‘plab yer osti yo‘llari, ko‘hna Buddha ibodatxonasi, Novqa, Sa’d ibn Vaqqos, Sayfin ota kabi ziyyaratgohlar, Quyosh taqvimi, Qoratosh, Qo‘ng‘irtepa singari arxeologik yodgorliklar, Sohibqiron bobomiz nomi bilan atalmish “Amir Temur darvozasi” – bularning hammasi Jizzax vohasining qadimiylar sivilizatsiya va madaniyat beshiklaridan biri bo‘lib kelganini ko‘rsatadi” [2: 345-346].

Darhaqiqat, Sharq va G‘arbni bog‘lab turuvchi Buyuk Ipak yo‘li ustidagi chorrahada, qulay geografik hudud va muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan Jizzax o‘tmishda qadimgi fors podshohlari-ahamoniylar, yunon-makedonlar, arablar, mo‘g‘ullar, shayboniylar, keyinchalik Buxoro va Qo‘qon xonliklari hamda Rossiya imperiyasi, barcha-barchasining diqqat-e’tiborini o‘ziga tortib kelgan. Ayniqsa, bu jarayon O‘rta Osiyo xonliklari davrida, ya’ni Buxoro va Qo‘qon xonligi o‘rtasida avj olgan, Jizzax uchun ikki xonlik o‘rtasida doimo qonli to‘qnashuvlar bo‘lib turgan.

Bugungi kunda mustaqillik sharofati bilan qayta tiklangan beباho qadriyatlarimiz haqida ko‘p gapiryapmiz. Istiqlol bizga tarix haqiqatini tiklash, milliy madaniy merosni o‘rganish va xolis baholash imkonini berdi. Natijada biz Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida yashagan xalqlar qadimdan insoniyat moddiy va ma’naviy madaniyatiga ulkan hissa qo‘sheganligini guvohi bo‘lyapmiz.

O‘lkamizdagi ana shunday ko‘hna hududlardan biri shak-shubhasiz, Ustrushona viloyatidir. Yozma manbalarda Ustrushona hududi va uning nomi bir necha ko‘rinishlarda qayd etilgan. Antik va tarixiy manbalarda dastlab “Sug‘d orti sak o‘lkalari”, keyinchalik “Ustrushona” nomi bilan alohida ma’muriy hududni tashkil etgan Ustrushona shimolda Dashti Qipchoq, g‘arbda So‘g‘diyona, sharqda Toshkent va Farg‘ona, janubda Turkiston tog‘lari bilan chegaralangan. Uning poytaxt shahri Bunjikat hukmdorning qarorgohi bo‘lgan [3:91].

Qadimda bir tomondan Sug‘d va Baqtriya, ikkinchi tomondan Choch va Farg‘ona oralig‘idagi geografik kenglikda joylashgan Ustrushona Markaziy Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojida sezilarli rol o‘ynaganligi tarixiy manbalar va arxeologik ma’lumotlardan bizga ma’lum. Bu kabi ma’lumotlar bizga nafaqat Ustrushona, balki hozirgi O‘zbekiston hududiga kiruvchi Shimoliy Ustrushona tarixiga oid ko‘pdan ko‘p masalalarga ham oydinlik kiritadi. So‘nggi yillarda olib borilgan keng qamrovli arxeologik tadqiqotlar ushbu ta’kidlarni yangicha mazmun bilan boyitdi.

Qadimgi va antik davrdayoq Ustrushonada Nurtepa, Xontepa, Sag‘anaktepa kabi 20 dan ortiq aholi mavzelari shakllanganligi aniqlangan. [4:92]. Bu esa mil. avv. I ming yillikning oxiri va milodiy IV asrlarda Shimoliy Ustrushonada aholi zich yashaganlididan guvohlik beradi. Aholi mavzelari yashash uchun qulay bo‘lgan hududlarda shakllangan bo‘lib, ularning deyarlik barchasi dehqonchilik uchun qulay bo‘lgan daryolarning quyi va o‘rtalari joylashgan. Ilk o‘rtalarda nafaqat Ustrushona, balki O‘rtal Osiyonining barcha qadimiy vohalarida hayot faollashganligi kuzatiladi. Tekislik va tog‘ oldi hududlarda aholi sonining ortib borishi Ustrushonani kesib o‘tgan qadimgi tranzit karvon savdo yo‘llarining jonlanishiga hamda urbanizatsiya jarayonlarining tezlashishiga olib kelgan. Bunday tarixiy jarayonlar A.E.Berdimurodov, A.A.Grisina, M.H.Pardayev kabi respublikamizning taniqli arxeolog olimlari tomonidan o‘rganilgan, ular tomonidan tarixiy yodgorliklarning klassifikatsiyasi berilgan [5: 319].

Rivojlangan o‘rtalarda kelib tog‘ oldi va cho‘l xududlarida, magistral savdo yo‘llari bo‘ylab nisbatan katta bo‘limgan shaharlar, aholi mavzelari qad ko‘taradi. Tarixiy manbalar Shimoliy Ustrushonada Xarkan, Zomin, Dizak, Kurkat, Gulakandoz kabi 12 ta shunday shaharlar borligi haqida so‘zlaydi [4:93.]. Savdoning rivojlanishi natijasida Buyuk Ipak yo‘lining yanada faollashishi karvon savdo yo‘llarini obodonlashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiy va siyosiy jihatdan ahamiyatga molik ko‘plab karvonsaroylarning qurilishiga olib keldi.

Karvonsaroylar Shimoliy Ustrushonaning tranzit savdo yo‘llarida paydo bo‘lganligini tarixiy manbalar va shu jumladan arxeologik tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Ma’lumki, qadimgi karvonsaroylar, nafaqat Ustrushona va Movarounnahrning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarida, balki tranzit savdoning yuksalishida ham muhim rol tutgan. Ular bir qator vazifalarni bajargan. Karvonsaroylar savdo karvonlari qabul qilinadigan joy bo‘lib, ularda savdo ko‘rgazmalari tashkil qilingan, savdo-sotiq va mol ayrboshlash kabi bir qancha ishlar bajarib borilgan. Shuningdek,

ular ko‘pincha qal’ a, harbiy turar joy, omborxona hamda ma’naviy-madaniy markaz vazifalarini ham o‘tagan. Ba’zi karvonsaroylarda savdogarlar uchun oziq-ovqat, ko‘rpa-to‘shak hozirlangan, otulovlari yem-xashak bilan ta’minlangan.

Yozma manbalarda ta’kidlanishicha, Shimoliy Ustrushonada IX-XIII asrlarda ko‘plab karvonsaroylar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan, ularning aksariyati Zomin va Dizakda joylashgan. X asrda Dizak hukmdori tomonidan qurilgan “Xuday sor”, katta yer egasi zodagon Badr Kushayr qurdirgan “Xasan” karvonsaroylarining dovrug‘i Shimoliy Ustrushonada mashhur bo‘lganligi tarixiy manbalarda ta’kidlangan.

Jumladan, arab geograf sayyoohlari esdaliklarida Ustrushona davlati, uning rustoqlari haqida ancha to‘liq ma’lumotlar keltirib o‘tiladi. Yozma manbalar xabariga ko‘ra, Ustrushona o‘rtalarda ma’muriy tuzilish jihatidan 18 ta rustoqqa bo‘lingan. Mazkur rustoqlarning 9 tasi tekislik, 9 tasi tog‘lik va tog‘ oldi hududlarda joylashgan. Tekislikda joylashgan rustoqlarga – Bunjikat, Zomin, Feknon (akademik A. Muhammadjonovning ta’biricha, Fag‘non), Xarakana, Sabat, Xovos, Shavkat, Fag‘kat kirgan. Tekislikda joylashgan har bir rustoqning ma’muriy markazi – bosh shahri mavjud bo‘lgan va rustoqlar mahalliy dehqonlar tomonidan boshqarilgan [6:168].

Arab tarixchilar va sayyoohlarining ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlangan o‘rtalarda kelib Shimoliy Ustrushonada ko‘plab shaharlar qad ko‘targan. Xususan, Ahmad ul-Kotib Ustrushona ulkan va muhim ahamiyatli mamlakat ekanligi, unda qal’ a va katta shaharlar borligi haqida yozadi. Noma’lum muallifning “Hudud al-olam” asarida ta’kidlanishicha, X asrda Ustrushona ko‘plab shahar va viloyatlari (okruglar) bo‘lgan rivojlangan ulkan mamlakat bo‘lgan [4:130].

Dizak mamlakat poytaxti Bunjikatdan keyin kattaligi va ahamiyati jihatdan yirik shaharlardan biri bo‘lgan. U muhim savdo va ko‘chmanchilar yo‘li chorrahasida joylashgan bo‘lib, rabotlar bilan o‘ralgan kichkina, lekin qudratli qal’adan qisqa vaqt ichida katta bo‘lmagan shaharga aylangan. Qadimgi Dizak “katta bo‘lmagan qal’ a”, “shaharcha” ma’nosini anglatadi. Dizak shahrining asosini qadimgi Qaliyatepa yodgorligi tashkil qilganligi olimlar tomonidan aniqlangan [5: 320].

Dizak IX-X asrlarda atrofi bog‘lar bilan o‘ralgan, aholi zinch joylashgan shahar bo‘lib, u ko‘plab rabotlari bilan dong‘i ketgan edi. Samarqanddan chiqqan savdo karvonlari hozirgi Bulung‘ur yaqinidagi Katvon cho‘li orqali qadimgi Ustrushonanang shimoli-g‘arbiy hududlarining markazi bo‘lgan Dizak shahriga kirib borgan. Mazkur savdo karvon yo‘li Dizakdan Mirzacho‘l, Xovos orqali Shosh va Farg‘onaga qarab ketgan. Uning bir tarmog‘i Binokat yo‘li orqali Shoshning markazi Binokatga yetib borgan.

Shimoliy Ustrushona shaharlari qatorida Zomin mamlakat poytaxtidan keyin ikkinchi shahar hisoblangan. Zomin muzofoti to‘g‘risida dastlabki ma’lumot VIII asr boshlaridagi tarixiy manbalarda uchraydi. IX asrda yashagan muallif al-Yoqub Ustrushona haqida mufassal to‘xtalar ekan, uni 400 qal’ a va bir necha yirik shaharlari mavjud mamlakat deya e’tirof etadi, u bunday shaharlар qatoriga

Zominni ham qo'shgan. Shu davrda yashagan geograf va sayyoh Xurdodbeh Zomin shahri Shosh va Farg'ona savdo karvon yo'lining kesishgan hududda joylashganligi, sayyoohlар to'xtab o'tadigan shahar ekanligini ta'kidlaydi.

Manbalarda qayd etilishicha, shahar mudofaa devorlari bilan o'ralmagan, lekin mustahkam qal'a devorlari bo'lgan. Arablar bosqini davrida Shimoliy Ustrushonaning Dizak, Sabat, Zomin kabi shaharlari buzib tashlangan, ular xarobazorlarga aylantirilganligi tufayli aholi natijada boshqa xududlarga ko'chishga majbur bo'lgan. Keyinchalik ushbu aholi yashash joylarida ark, shahristonlar paydo bo'lib, yangi shaharlar shakllanganligi yozma manbalarda saqlanib qolgan.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi Ustrushona orqali o'tib, Farg'ona va Shoshga qarab ketgan tranzit savdo karvon yo'llari hududida ko'plab karvonsaroy, aholi mavzelari, qal'alar, katta-kichik shaharlarning shakllanish va rivojlanish jarayoniga katta ta'sir qilib, urbanistik jarayonlarni yangi pog'onaga ko'tarilishiga xizmat qilgan. Tarixiy manbalar hamda keyingi yillarda Shimoliy Ustrushona hududida o'tkazilgan arxeologiya tadqiqotlari buni yaqqol tasdiqlaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishslash – davr talabi. 8-jild. Toshkent: "O'zbekiston", 2000.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. (Prizident Sh.M.Mirziyoyovning Jizzax viloyati saylovlari bilan bo'lgan uchrashuvidan) Toshkent. "O'zbekiston", 2017.
3. Milliy o'zlikni anglash va moziyga nazar. Toshkent: "Navro'z", 2013.
4. Buryakov Yu.F., Grisina A.A. Maverannaxr na Velikom shelkovom puti /Otv. red. K.I.Tashbayeva. Samarkand, Bishkek, 2006.
5. "Qadimi Jizzax vohasi – Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tizimida (siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot) // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent: "VNESHINVESTPROM", 2019.
6. O'zbekiston moddiy madaniyati tarixi. 38-nashri. O'zR FA Arxeologiya instituti, Samarqand, 2012.